IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

KELAJAK KADRLARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TARBIYA RESURSLARINING AHAMIYATI

Tashmetova Gulnoza Sadriddinovna

Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi taraqqiyot shuni ko‘rsatmoqdaki, hech bir soha dogma bo‘lib bir tizimni qattiq ushlab shu orqali rivojlanishga erishishi mumkin emas. Chunki, kechagi bilimlar bugun eskilikka qylanib qolayotganligi uni zamonaviy ko‘rinishda va usulda olib borishni taqazo etmoqda. Maqola tarbiyaning zamonaviy usullari taklif etilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: Uchinchi Renessans, ma’naviy tarbiya, elektron tarbiya, axloqiy tarbiya resurslari, elektron tarbiya resurslari.

Bugunga kelib mamlakatimizda ta’lim-tarbiya jarayonida yangi davrga qadam qo‘ymoqda. Ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy yo‘nalish qilib belgilab olindi. O‘zbekistonda uchinchi Renessans, uyg‘onish davri, ya’ni ijtimoiy hayotda barcha soha bo‘yicha, shuningdek, ilm-fanda, ta’lim-tarbiyada uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanish, tez suratlarda rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishi hisoblanadi. Yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi pedagog kadrlar nafaqat bilimdon, balki, eng avvalo, yuksak insoniy sifatlar sohibi bo‘lishi lozim. Darhaqiqat, talaba-yoshlarning fanga qiziqishi yoki kasb-hunar tanlashi, uni o‘rganishi, malakali mutaxassis bo‘lib yetishishida ta’lim-tarbiya beruvchilarning ma’naviy qiyofasi, ahloqiy fazilati, kasb ma’suliyati muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya maqsadi va vositalar yangilanishi o‘quvchilarning ma’naviy qiyofasida birmuncha o‘zgartirishlarga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi vaqtda shaxsni shakllantirish uni jamiyat taraqqiyotining turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tendensiyalari bilan tanishtirish asosida amalga oshiriladi. Ma’naviy tarbiya, aslida, ajdodlar hayot tajribasini yoshlarga yetkazishga va shu asosda ularning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga imkon beradigan murakkab jarayondir[1]. Bugungi kunda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha yangi konsepsiyani yaratishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Ta’lim muassasalari tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va muvaffaqiyatli davom ettirish uchun zarur bo‘lgan tarbiyaviy ishlar uslublari, bilimlar, malaka va mahoratlar tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni tarbiyaviy ishlar amaliyotida qo‘llash masalalari pedagogik jamoalarining eng muhim muammosi bo‘lib qolmoqda. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish tarbiyaviy ishlar texnologiyasini to‘g‘ri tashkil qilish va qo‘llashga bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida ta’lim muassasalari uchun tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uslubiyoti zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlanmalari asosida yaratishni talab etadi. Fikrimizcha, ta’lim muassasalarining tarbiyaviy ishlar texnologiyasi ijodiy faollik, mustaqil fikrlash va mohirona harakatlarga yo‘naltirilgan bo‘lish va tarbiyachi hamda o‘quvchilar tomonidan minimal kuch sarflagan holda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha qo‘yilgan maqsadlarni egallashda eng faol shakl, usul va uslublardan foydalanish,

tarbiyaviy jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etuvchilarning doimiy va majmuaviy faoliyatining asosiy qismidan iborat bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, ta’limning asosiy vazifalari - o‘quvchi va talaba yoshlarga bilim berish, kasb-hunar o‘rgatish, ularni yetuk mutaxassis qilib voyaga yetkazish. Shu bilan birga, bo‘lajak pedagog-kadrlarning insoniy sifatlarini shakllantirish, kasbiga nisbatan ma’suliyat hissini tarbiyalash, o‘ta muhim vazifa bo‘lib turibdi. Tarbiyaviy faoliyat borasida so‘z ketganda kasbiy ma’suliyat haqida gapirish mumkin. Kasbiga ma’suliyat hissini oshirishda tarbiyaviy ishlarning o‘rni juda ham muhimdir.

Bu maqsadlarga erishishda talaba ongiga ta’sir etish zaruriyati mavjud.

Inson ongiga ta’sir ettirishda ta’lim-tarbiyaning ahamiyati juda ham yuqori o‘rinni egallaydi. Ta’lim imkoniyatlaridan keng foydalangan xalqning ijtimoiy va ma’naviy imkoniyatlari tobora yuksalib boradi. Fan-texnika taraqqiyoti va yoshlarni hayotga tayyorlash muammosi ta’lim-tarbiya jarayonida jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Hozirgi davrgacha bo‘lgan vaqt mobaynida, oliy ta’lim muassasalarida elektron axborot resurslarini yaratish hamda informatsion va ta’limiy saytlar yaratish, o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha yetarlicha tajriba orttirilgan.

Ta’limni axborotlashtirish, ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish so‘zsiz o‘z samarali natijasini bermoqda.

Shu o‘rinda aytishimiz joizki, axborotlashgan ta’lim tizimida nafaqat ta’lim resurslari, balki elektron tarbiya resurslaridan ham foydalanish shubhasiz muhim hisoblanadi, chunki har qanday ta’lim-tarbiya bilan uyg‘unlashgandagina yetuk ma’naviyatga zamin bo‘ladi. Bu esa o‘z-o‘zidan ta’lim tizimi oldiga elektron tarbiya resurslari yaratish muammosini qo‘yadi.

Bugungi kungacha bo‘lgan ta’lim tizimidagi elektron resurslarning holati tahlili ko‘rsatishicha, ta’lim muassasalarining mahalliy tarmoq negizini faqatgina ta’limiy saytlar hamda o‘quv metodik materiallar tashkil etadi. Shunday ekan, elektron ta’lim resurslariga qo‘shimcha elektron tarbiya resurslarini ham yaratish shubhasiz dolzarb va muhim hisoblanadi.

Biz elektron tarbiya resurslarini maqsadiga ko‘ra qo‘yidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

-Ma’naviy tarbiya elektron resurslari: Bunda milliy va umumbashariy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini anglatuvchi, ota-bobolarimizning milliy urf-odat va an’analarini targ‘ib qiluvchi hamda O‘zbek halqining, ma’naviyatining buyuk va sharq renessansi namoyandalari Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Qozizoda Rumiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Kamoliddin Behzod, Umar Hayyom va boshqa allomalarning ilmiy merosi, ma’naviy-ahloqiy qarashlarida komil inson tarbiyasi haqidagi konsepsiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Asrlar osha ajdodlarimiz, alloma-donishmandlarimiz, amalga oshirgan o‘ziga xos milliy tuyg‘ular bilan sayqal topgan urf-odatlar, qadriyatlar, madaniyat va sa’nat asarlari jahon ma’naviyatida insoniyatning ustuvor yutuqlari hisoblanadi.

-Axloqiy tarbiya resurslari: Axloqiy tarbiya jarayonida ko‘proq o‘git nasihatlardan, buyuk allomalarning Yusuf Xos Xojibning “ Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa’diyning “Bo‘ston va Guliston”, Jomiyning “Bahoriston”i, Alisher Navoiyning “Hayratul abror” va “ Mahbubul-qulub”, Nizomul-mulkning

“Siyosatnoma” kabi pandnoma, nasihatnoma tarzida yozilgan asarlaridan foydalanish.

Estetik tarbiya resurslari: Xalq amaliy sa’nati va hunarmandchiligi milliy qadriyat sifatida uzoq tarixga ega. Amaliy sa’nat turlaridan o‘ymakorlik (yog‘och, ganch va mis o‘ymakorligi), zargarlik, zardo‘zlik, kashtado‘zlik, kulolchilik kabilar yoshlarda go‘zallikni his qilish tuyg‘ularini shakllantiradi. Milliy ohanglarning estetik tarbiyadagi o‘rni juda ham beqiyos. Shuning uchun ham xalq ohanglari, nola va qochirimlarini va boshqa milliy zarblarni tinglagan kishi uni befarq tinglay olmaydi, unga mutelarcha ergashadi, qo‘shilib hirgoyi qiladi, raqsga tushadi – musiqa uni o‘z sehrli og‘ushiga oladi. Mumtoz qo‘shiqlar estetik tarbiya omili bo‘lmasdan, o‘ziga xos ma’naviy tarbiya omili hamdir.

-Jismoniy tarbiya elektron resurslari: Jismoniy tarbiya sog‘liq garovi ekanligini bilgan holda turli jismoniy mashqlar haqida, ajdodlarimizning milliy sport turlaridan bo‘lgan – kurash haqida va yana salomatlik saboqlari asosida elektron saytlar yaratiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining chuqur bilim va samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo‘lishi ma’lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy va amaliy bilimlarning, ta’lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalashish malakasining nechog‘lik shakllanganiga bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, ta’lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish va undan unumli foydalanishning metodik hamda amaliy asoslarini yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global yo‘nalishi hisoblanadi. Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, mamlakatda axborotlashtirish jarayoni tez sur’atlar bilan o‘sib borayotgan hozirgi davrda axborot texnologiyalari ta’limi jarayonida shu kabi elektron tarbiya resurslar yaratish amaliy ishlari olib borilsa ham ta’limning, ham tarbiyaning samaradorligiga erishish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarjonovich, M. A. (2023). MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. *IQRO JURNALI*, *2*(1), 628-631.
2. Nuriddin Akramkulovich Saidkulov (2020). THE IMPACT OF THE REFORMS ON THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH. Academic research in educational sciences, (1), 152-156. doi: 10.24411/2181-1385-2020-00022
3. Akramovich, Saidkulov N. "The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth." European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 7-9.
4. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
5. Akramkulovich, S. N. (2020). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding.
6. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
7. Akramkulovich, S. N. (2020). METADOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH

POLITICAL CULTURE ON THE BASIS OF INNOVATIVE-CREATIVE APPROACH. Восточно-европейский научный журнал, (5-5 (57)), 39-42.

8. Saidkulov, N. A. (2020). The Impact of the Reforms on the Political Culture of Youth. Academic research in educational sciences, (1), 152-15

9. Akramovich, S. N. (2020). The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(2), 7-9.

10. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.

11. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).

12. Akramkulovich, S. N. (2023). HISTORICAL ROOTS OF THE FORMATION OF EASTERN POLITICAL THOUGHT. World Bulletin of Social Sciences, 19, 173-176.

13. Saidkulov, N. ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE IN THE NEW RECONCILIATION PERIOD OF UZBEKISTAN.

14. Akramkulovich, S. N. (2023). JAMIYAT SIYOSIY TAFAKKURI SHAKLLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI. SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI, 2(3), 1-6.